

O'ZBEK TILIDA QARASHLILIK-TEGISHLILIK MAZMUNINING SO'Z SEMANTIKASI TA'SIRIDA YASHIRIN IFODALANISH USULI

Muattar ISMOILOVA*

Annotatsiya: Dunyo tilshunosligida uzoq yillardan beri qarashlilik-tegishlilik ma'nosini ifodalovchi birliklar grammatik kategoriyani hosil qiluvchi vositalar sifatida o'rganib kelinmoqda. Ammo bu muammoga asosiy hollarda egalik va kelishik kategoriyalari doirasida tavsif berib o'tiladi. O'zbek tilshunosligida ham qarashlilik-tegishlilik ma'nosini ifodalovchi vositalar sifatida egalik ko'rsatkichlari, qaratqich kelishigi hamda *-niki* qo'shimchasi ko'rsatiladi. Ammo o'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik ma'nosining leksik va sintaktik sath birliklari orqali ifodalanishi masalasi nazardan chetda qolganligi ma'lum. Ushbu muammoning tadqiqi o'zbek tili birliklarining nutqiy imkoniyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlar sirasini boyitadi, o'zbek tiliga avtomatik ishlov berish tizimi lingvistik ma'lumotlar bazasining kengayishiga zamin yaratadi.

O'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik ma'nosining muayyan so'zlar orqali ularning semantikasi ta'sirida yashirin ifodalanishi ham kuzatiladi. Bunday vaziyatda ushbu so'zlar ishirokida tuzilgan gaplardan yashirin tarzda qarashlilik-tegishlilik ma'nosi anglashiladi. Qarashlilik-tegishlilik ma'nosining gapda yashirin tarzda voqelanishiga turtki beruvchi birliklarga *ega*, *ega bo'lmoq*, *egalik qilmoq*; *ixtiyorida*, *izmida*, *tasarrufida*, *qaramog'ida* kabilarni kiritish mumkin. O'zbek tilida *ega* leksemasi va u ishtirokida yasalgan *ega bo'lmoq*, *egalik qilmoq* fe'l leksemalari orqali nutqda yashirin tarzda qarashlilik-tegishlilikni bildiruvchi axborot voqelanadi.

Kalit So'zlar: *Possessor, Ega, Ixtiyorida, Leksema, Tasarrufida.*

The Method of Implicit Expression Under the Influence of Word Semantics of the Content of Possession-Relationship in Uzbek Language

Abstract: For many years, units expressing the meaning of belonging have been studied in world linguistics as a grammatical category. However, depending on this problem, the categories of possession and agreement are described. In Uzbek linguistics, equality indicators, demonstrative agreement, and the suffix *-niki* are also used as indicators of belonging. However, it is known that the issue of expressing the meaning of belonging through lexical and syntactic level units in the Uzbek language has been ignored. "The study of this problem enriches the work devoted to the study of the speech of Uzbek language units in the Uzbek language, and the automatic loading system is a basis for expanding the linguistic database. In the Uzbek language, the hidden expression of the meaning of belonging-affiliation through the influence of certain words is also taken into account. In such a situation, the hidden meaning of belonging-affiliation is understood from the sentences in which these words are present. The units that give rise to the hidden internal realization of the meaning of belonging-affiliation in the sentence are: to have, to have, to possess; to have, to be under, to be under the control of, etc. In the Uzbek language, information expressing hidden belonging-affiliation is realized in speech through the lexeme of the owner and the lexemes of the verb to possess formed with its participation.

Keywords: *Possessor, Owner, At The Disposal, Lexeme, At The Disposal.*

Kirish

Tadqiqotning mavzusi "O'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik ma'nosining so'z semantikasi tasirida yashirin ifodalanish usuli" deb nomlanib, maqsadi o'zbek tilidagi qarashlilik-tegishlilik ma'nosini ifodalovchi birliklarning semantik xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Dunyo tilshunosligi, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida qarashlilik-tegishlilik kategoriyasining o'rganilishi muammosiga munosabat bildirish, o'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik ma'nosining morfologik usulda ifodalanishi xususiyatlarini yoritish, o'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik ma'nosining leksik, sintaktik sath birliklari orqali ifodalanishini ochib berish, o'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik ma'nosining yashirin ifodalanishi holatlarini asoslashdir. Tadqiqotning ahamiyati o'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik kategoriyasi birliklarining grammatik, uslubiy, pragmatik xususiyatlari bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Possessivlik barcha tillarga xos universal kategoriyadir. Tilshunoslikda *possesivus* (lotincha *egalikni ifodalovchi, egalik*) termini tilning universal konseptual kategoriyalaridan

* PhD. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston, muattarismoilova25@gmail.com

birini ifodalash uchun ishlatiladi. Bu universal semantik kategoriya predmetga egalik qiluvchi va egallangan predmet o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Biroq turli tillarda egalik va qarashlilik ma'nosini ifodalash usullari har xil.

I.A.Melchukning fikricha, tilda qarashlilik va egalik munosabatlarining ifodalanishini bir-biridan farqlash kerak. U egalik/tegishlilik kategoriyasi qarashlilik kategoriyasi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi (Bastrakova, 2019).

V.A.Plungyaning ta'kidlashicha, qarashlilik nisbatan tor ma'noda "egalik qilish, tegishli bo'lishni ifodalash"da qo'llanadi. Egalik bu o'rinda semantik tushuncha, possessivlik esa grammatik tushunchadir (Plungyan, 2011). Possessivlikni ifodalash uchun turli vositalar qo'llanadi. Masalan, rus tilida *imet'*, *obladat'*, *vladet'* fe'llari, kishilik olmoshlari, possessiv yuklama va predloglar kabi maxsus analitik vositalar possessivlikni ifodalaydi.

A.P.Ushakova qarashlilik-tegishlilik konstruksiyalarining rus tilida turli shakllarda qadimgi davrlardan mavjudligini e'tirof etadi. Uning ta'kidlashicha, egalik yoki qarashlilik kategoriyasi tilda zamon, makon va boshqa kategoriyalar bilan birga keladi (Plungyan, 2011).

O'zbek tilida bir obyektning ikkinchisiga egalik qilishi orqali ikki obyektning o'rtasidagi grammatik va semantik munosabatning lisoniy birliklar bilan ifodalanishi qarashlilik-tegishlilik deb yuritiladi. Shu obyektlardan biriga egalik qiluvchini posessor, egallangan obyektни esa korrelyat deb atash qarashlilik-tegishlilik munosabatlarida strategik me'yor sanaladi.

O'zbek tilida ham qarashlilik-tegishlilik munosabati ikki obyekt o'rtasida birining boshqasiga egalik qilishi, birining boshqasiga tegishli ekanligining ifodalanishida yuzaga chiqadi. Qarashlilik-tegishlilik kategoriyasini verballashtirishda birinchi navbatda qaratqich kelishigi va egalik affikslari muhim o'rin tutadi.

Egalik affikslarining asosiy ma'nosi ot va otlashgan so'zlar o'rtasida grammatik munosabatni ifodalash bo'lib, aniqlanmishda ifodalangan shaxs, narsa, hodisaning qaratqich aniqlovchida ifodalangan shaxs, narsa, hodisaga tegishli, qarashli, mansub, xos ekanligini tasdiqlashdan iborat. Ya'ni ot turkumiga xos bo'lgan so'zning ot turkumiga oid boshqa so'z bilan munosabati qaratqich kelishigi va egalik shakli orqali bir-birini taqozo qilgan holda yuzaga chiqadi. Bunday munosabat natijasida birikmada qarashlilik-tegishlilik ma'nosi ifodalanadi.

O'zbek tilida qarashlilik-tegishlilikni ifodalovchi bu kabi vositalarning maxsus tizimi mavjud, ularning qo'llanish xususiyatlari, grammatik ma'nosi va vazifalari kontekst talabidan kelib chiqib belgilanadi. Garchi bunday sintaktik konstruksiyalar "qarashlilik-tegishlilik" ma'nosi ostida birlashsa-da, ularda bir-biridan farqlanuvchi turli semantik munosabatlar qayd etiladi (G'ulomov, 1941: 52).

Ega leksemasi quyidagi ma'nosida ham gapda qarashlilik-tegishlilikni bildiruvchi axborotni yuzaga chiqaradi: "5 Narsani "yuzaga keltirish, tayyorlash va sh.k. jihatidan qarashlilikini bildiradi". Masalan, *Osh egasi bilan shirin* maqolida oshning egasiga, ya'ni uni tayyorlagan insonga tegishli, qarashli ekanligi ma'nosi anglashiladi. Shunisi xarakterliki, *ega* leksemasining "3 Shaxs yoki narsada o'zi birikib kelgan so'z anglatgan narsaning bor, mavjud ekanini bildiradi; bor, mavjud" ma'nosida ham qarashlilik-tegishlilikka ishora kuzatiladi. Masalan, *Men shu dalahovliga egaman* gapidan Menda shu dalahovli bor axboroti bilan birga Shu dalahovli menga tegishli axboroti anglashiladi. Ya'ni subyektda biror narsa-predmetning mavjud ekanligi haqidagi hukm bu narsaning ayni subyektda tegishli ekanligini anglatuvchi axborotga ishora qilib turadi. Bu axborot asosiy axborot zahirida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. Quyidagi gapning semantikasiga e'tibor qaratamiz: — *Said Xalil mamlakatning diniy peshvosi sifatida podshoh hokimiyatini ichdan nazorat qilish huquqiga ega edi*. Ushbu gapning semantik strukturasidan yashirin tarzda "Said Xalilga mamlakatning diniy peshvosi sifatida podshoh hokimiyatini ichdan nazorat qilish huquqi tegishli edi". Yoki *Safar qanchalik yaxshi do'st hisoblanmasin, mana shu kabi odatlari, kibrga bandaligi Omonulloga yoqmaydi. Ba'zilar*

do'st tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Anglashiladiki, [Ism_{b.k.} + Ism_{jo'n.kel.} + ega] qolipidagi sintaktik konstruksiyalarda doimo yashirin tarzda qarashlilik-tegishlilikni bildiruvchi axborot ifodalanadi.

Bunday tuzilishdagi sintaktik konstruksiyalarda bosh kelishikdagi ismlardan tashkil topgan birlik possessor vazifasida, jo'nalish kelishigidagi ismlar bilan ifodalangan birlik esa korrelyatni, ya'ni egalik qilingan predmet tushunchasini anglatadi. Masalan: *Kamolot zinalaridan o'tib shon-shavkatga, mol-dunyoga, o'zi bir vaqtlar entikib orzu qilgan hamma narsaga ega bo'libdi-yu, xuddi o'sha zinalarda bitta narsasini, eng aziz, eng pokiza narsasini – odamgarchiligini tushirib qoldiribdi.* Yoki *Nimaiki topgan bo'lsam, xudo xohlasa, hammasiga o'zing ega bo'lasan. Mayli, prokuror bo'l, mayli savdo xodimi bo'l, faqat davomchim bo'lsang bas, deb yuzu ko'zlarimdan ko'p o'pard.* Nimadandir qalbim g'ururga to'lib borayotganini his qilib turardim. Bunga birgina misol, *Itolmasning nazarida, og'asi Erdonboy otasidan qolgan bir xum tillaga ega bo'lmaguncha binoyidek yigit edi.* Otasining vafotidan so'ng ulkan boylikka ega bo'lgach, birdaniga o'ta xasis, o'ta kibrli kimsaga aylandi-qoldi. Shunisi xarakterliki, ega leksemasi gapda inkor ifodalovchi emas, na... yuklamalari bilan birikib kelgan holatda gapda qarashlilik-tegishlilikni ifodalovchi axborot ifodalanmaydi. Masalan: *Salim noyob qo'lyozmagan ega emas. Salim na noyob qo'lyozmaga ega.*

U odil edi! Lekin unda hech qanaqa huquq yo'q edi. U javohir edi! Ammo qavmda javohirni toshdan farqlaydigan odamning o'zi yo'q edi. Boz ustiga, bu ovulda tug'mas xotin yerda yotgan toshchalik qadrga ega emasdi. Nutqda ega leksemasi bilan hosil qilingan ega bo'lmoq, egalik qilmoq fe'l leksemalari ham uchraydi. Bunday yasalmalar orqali narsa-predmetga ega bo'lganlik yoki egalik qilinishi harakati sodir etilgandagina gapda qarashlilik-tegishlilikni ifodalovchi yashirin axborot ifodalanadi. Egalik qilish harakati hali amalga oshmagan bo'lsa yoki amalga oshayotgan bo'lsa, harakatning inkori ifodalansa, gapda qarashlilik-tegishlilik ma'nosi yuzaga chiqmaydi. Masalan: 1. *Anvar ersa avvalo Ra'no kabi bir rafiqag'a ega bo'lmoqchi va shu vositada boshqa masalalarga qaramoqchi edi.* 2. *Nigor oyim yigirma-o'ttuz qizni o'qutib ulardan tushkan "ozodliq" va "panjshanbalik" pullarga ham ega bo'lolmas, har kun deyarlik muhtarab maxdum pochchag'a hisobini batamom topshurib turishqa majbur edi* (Qodiriy, 2014: 46).

Ko'rinadiki, birinchi misolda ega bo'lmoq fe'l leksemasi orqali harakatning kelgusida rejalashtirilganligi ifodalangan, shu sababli gapda Anvarning hali rafiqaga ega bo'lmaganligi anglashiladi. Keyingi gapda esa ega bo'lmoq fe'l leksemasi bo'lishsiz shaklda ishlatilgan. Natijada gapning ushbu fe'l ishtirok etgan qismidan "pulga ega bo'lmaganlik" ma'nosi ifodalanadi. Demak, ega bo'lmoq, egalik qilmoq fe'l leksemalari orqali qarashlilik-tegishlilik ma'nosining ifodalanishi uchun ushbu fe'llar anglatgan harakat amalga oshgan bo'lishi shart. Ega bo'lish, egalik qilish harakati amalga oshgach, harakat natijasi sifatida predmetga egalik, predmetning shu shaxsга tegishli ekanligi ma'nosi yuzaga chiqadi.

O'zbek Tilida Qarashlilik-Tegishlilikning Yashirin Ifodalanish Usuli

Nutqda qarashlilik-tegishlilik ma'nosi *ixtiyorida*, *izmida*, *tasarrufida*, *qaramog'ida* leksemalari bilan ham yuzaga chiqadi. Bu birliklar, garchi egalik affiksi va o'rin-payt kelishigini qabul qilgan bo'lsa-da, ushbu affikslar so'z tarkibida o'z vazifasidan uzoqlashgan. Shu sababli *ixtiyorida*, *izmida*, *tasarrufida*, *qaramog'ida* so'zlari nutqda yaxlit birlik sifatida ishlatiladi va gapda qarashlilik-tegishlilik ma'nosi egalik affiksi orqali emas, ayni shu so'zlar semantikasi ta'sirida yuzaga chiqadi.

Ega leksemasi quyidagi ma'nosida ham gapda qarashlilik-tegishlilikni bildiruvchi axborotni yuzaga chiqaradi: "5 Narsani "yuzaga keltirish, tayyorlash va sh.k. jihatidan qarashlilikini bildiradi" (O'TIL 5, 2008: 18). Masalan, *Osh egasi bilan shirin* maqolida oshning egasiga, ya'ni uni tayyorlagan insonga tegishli, qarashli ekanligi ma'nosi anglashiladi. Shunisi xarakterliki, ega leksemasining "3 Shaxs yoki narsada o'zi birikib kelgan so'z anglatgan

narsaning bor, mavjud ekanini bildiradi; bor, mavjud (O‘TIL 5, 2008: 18)” ma’nosida ham qarashlilik-tegishlilikka ishora kuzatiladi (O‘TIL 5, 2008: 18). Masalan, *Men shu dalahovliga egaman* gapidan Menda shu dalahovli bor axboroti bilan birga Shu dalahovli menga tegishli axboroti anglashiladi. Ya’ni subyektida biror narsa-predmetning mavjud ekanligi haqidagi hukm bu narsaning ayni subyektga tegishli ekanligini anglatuvchi axborotga ishora qilib turadi. Bu axborot asosiy axborot zahirida yashirin tarzda yuzaga chiqadi.

Ma’lumki, egalik affiksi so‘zga qo‘shilib, asosdan anglashilgan predmetga (predmet – keng ma’noda) egalik/qarashlilik ma’nosini ifodalaydi. Masalan, *kitobim – kitob menga tegishli, ukam – uka menga qarashli* kabi. Ammo ixtiyorimda birligi egalik affiksini qabul qilganligi uchun “ixtiyor menga tegishli” ma’nosini anglatmaydi (G‘ulomov, 2008: 140). Yoki *tasarrufingda* birligi orqali ham “tasarruf senga tegishli” ma’nosi yuzaga chiqmaydi. Xuddi shunday, *qaramog‘imda* birligida ham “qaramog‘ menga tegishli” ma’nosi anglashilmaydi. Bu holat *ixtiyorida*, *tasarrufida*, *qaramog‘ida* birliklari tarkibida egalik affiksi hamda o‘rin-payt kelishigi ma’nosi va vazifasidan uzoqlashganligini, bu birliklar mazkur affikslari bilan yaxlit holda ma’no kasb etishi va shu holda leksik birlik maqomiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Demak, *ixtiyorida*, *izmida*, *tasarrufida*, *qaramog‘ida* gapda yaxlit birlik sifatida ishtirok etadi. Qarashlilik-tegishlilik ma’nosi ushbu birliklar semantikasi ta’sirida yashirin ifodalanadi. Ma’lumki, *ixtiyorida* so‘zining asos qismi “1 Xohish-istak erki; erk, xohish. 2 Foydalanish, tasarruf yoki idora qilish huquqi; izm” ma’nosini anglatadi (G‘aynullina, 2002: 19).

“QARAMOG‘ Tarbiya, boqish, tasarruf va sh.k. jihatdan mansublik, ixtiyorida bo‘lish, qaramlik. *O‘n yoshimgacha onamning qaramog‘ida tarbiyalandim. – Azizbek Turkiston xonligining eng zolim... beklaridan va uning o‘z qaramog‘ida bo‘lgan Toshkent aholisiga qilgan zulmlari Farg‘onaga doston. Eshmat aka... qaramog‘idagi bolalari to‘g‘risida spravka kelsa, uyga qaytarishlari lozimligini yozardi.* Nutqda *qaramog‘ida* so‘zi, *qaramog‘ida qolmoq*, *qoramog‘ida bo‘lmoq* fe’l leksemalari kimsaga nisbatan ishlatilganda, asosan, “tarbiyasida, boquvida” ma’nosi reallashadi. Masalan:1. “*Boquvida*” ma’nosi ifodalanadi: *Bir o‘g‘ilning qaramog‘ida qolgan keksa otasi bor edi.* Nutqda *qaramog‘ida* so‘zi, *qaramog‘ida qolmoq*, *qoramog‘ida bo‘lmoq* fe’l leksemalarining “tasarrufida, ixtiyorida bo‘lmoqlik” semasi yuzaga chiqqanda “tegishlilik, qarashlilik” ifodalanadi. Biroq bu ma’no yashirin xarakterga ega bo‘ladi. Bu birliklar nafaqat kishilarga, balki xo‘jalik, davlat, yurt kabilarga nisbatan ham ishlatiladi. Bunday vaqtda ushbu birliklarning “ta’minotida bo‘lmoq,” “tasarrufida bo‘lmoq” ma’nolari voqelanadi. Masalan:1. “Ta’minotida” ma’nosi ifodalanadi: *OTMlarda tahsil olayotgan yetim bolalar davlat qaramog‘ida bo‘ladi.*2. “Tasarrufida bo‘lmoq” ma’nosi ifodalanadi: *O‘zbekistonda bank aktivlarining 80 foizdan ortig‘i davlat qaramog‘ida.* Gapda qo‘llangan *qaramog‘ida* so‘zi, *qaramog‘ida qolmoq*, *qoramog‘ida bo‘lmoq* fe’l leksemalarining aynan “tasarrufida bo‘lmoq” ma’nosi reallashganda esa sintaktik konstruksiyada “xo‘jalikka tegishli”, “davlatga tegishli”, “hokimlikka tegishli” kabi turli axborotlar ifodalanadi. Masalan:1. “*Andijon*” futbol klubi bundan buyon *Andijon viloyati hokimligi qaramog‘ida bo‘ladi.* Berilgan gapdan “Andijon” futbol klubi bundan buyon Andijon viloyati hokimligiga qarashlidir” axboroti anglashiladi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida gapda qo‘llangan *qaramog‘ida* so‘zi, *qaramog‘ida qolmoq*, *qoramog‘ida bo‘lmoq* fe’l leksemalari orqali ularning semantikasi ta’sirida yashirin axborot ifodalanadi. Shuningdek, nutqimizda *tasarrufida* hamda bu so‘z ishtirokida yasalgan *tasarrufida bo‘lmoq*, *tasarrufida qolmoq* fe’l leksemalari orqali ham gapda yashirin tarzda qarashlilik-tegishlilik ma’nosi ifodalanadi.

“TASARRUF [a. – o‘z ixtiyoriga olish, egalik qilish; mustaqil harakat qilish; o‘zboshimchalik] *kt.* Foydalanish, egalik huquqi, ixtiyori; egalik, xo‘jayinlik. Xususiy tasarruf. *Bu yer-suvlar qadimdan boyning tasarrufida edi. – Otasi esa Bobomirzani o‘zining ko‘z qorachig‘i deb bilar, shu sababdan katta ro‘zg‘orni boshqarishni, yer-suv, mol-dunyo*

tasarrufini shuning qo'liga tashlab ketish niyatida yurardi. I.Rahim, Taqdir. [Berdiqul] Yarim qo'ra molning he yo'q-be yo'q o'gay akasi tasarrufiga o'tib ketganidan yuragi tars yorilay dedi. N.Norqobilov, Tog'dagi yolg'iz odam" (O'TIL 3, 2008: 417).

O'zbek tilida *tasarruf qilmoq (etmoq)* so'zi ham uchraydi. Ammo bu so'z kitobiy uslubga xoslanganligi sababli og'zaki nutqda deyarli kuzatilmaydi. Mazkur so'z gapda "egalik qilmoq" ma'nosida qo'llanib, egalik, tegishlilik ma'nosi ifodalaydi. O'zbek tilining izohli lug'ati'da *tasarruf qilmoq (etmoq)* so'zi quyidagicha izohlangan: "Tasarruf qilmoq (yoki etmoq) Egalik qilmoq. *Mening butun xojaligimni tasarruf qilishga undan boshqa kishining haddi yo'q. Fotih Iskandar butun yer yuzini tasarruf etib ham, ko'ngli zarracha shod bo'lmagach, onasiga shunday maktub yozgan...* Ko'rinadiki, *tasarruf* so'zi va undan hosil qilingan *tasarruf qilmoq (etmoq)* so'zi "egalik qilmoq" ma'nosini bildiradi. "Egalik qilmoqlik" tegishlilikni anglatadi. Shu jihatdan bu so'zlar ishtirok etgan gaplardan yashirin tegishlilik/qarashlilik ma'nosi anglashiladi. Xususan, *Fotih Iskandar yer yuzini tasarruf etib* birikmasi orqali "Yer yuzi Fotih Iskandarga tegishli" axboroti anglashiladi. Demak, bu so'z ham kontekstda yashirin tegishlilik/qarashlilikni ifodalab keladi. Qarashlilik-tegishlilik ma'nosini yashirin ifodalovchi bu birliklarning nutqda qo'llanishi hamda faollik darajasi turlicha. Demak, *ixtiyorida, izmida, tasarrufida, qaramog'ida* gapda yaxlit birlik sifatida ishtirok etadi. Qarashlilik-tegishlilik ma'nosi ushbu birliklar semantikasi ta'sirida yashirin ifodalanadi (Guzev, 1987: 91).

Ma'lumki, *ixtiyorida* so'zining asos qismi "1 Xohish-istak erki; erk, xohish. 2 Foydalanish, tasarruf yoki idora qilish huquqi; izm (O'TIL 2, 2004: 501)" ma'nosini anglatadi (O'TIL 2: 2004: 501).

Ega, ixtiyorida, izmida, tasarrufida, qaramog'ida so'zlari kitobiy uslubga xos bo'lsa-da, ularning nutqda qo'llanish darajasi bir-biridan farqlanadi.

Izohdan ko'rinadiki, mazkur birlik to'g'ridan to'g'ri qarashlilik/ tegishlilik ma'nosini anglatmaydi. Ammo uning biror narsadan "foydalanish, tasarruf yoki idora qilish huquqi"ga egalikni anglatishi gapda *ixtiyorida* so'zi orqali yashirin qarashlilik-tegishlilik ma'nosi ifodalanishiga yo'l ochadi. Masalan: "*Botanika*" bog'i Fanlar akademiyasi *ixtiyorida*. *Qachonki, sukunat zangi – g'ayritabiyy bir sasdan o'ziga kelganida, kun adoqlab, bobo quyosh allaqachon cho'qqilardan biri boshiga qo'ngan – hademay borliqni qora tun ixtiyorida qoldirib, tog'lar ortiga sho'ng'ish taraddudida edi* (G'adzhiev, 1975: 22). Berilgan birinchi gapdan "*Botanika*" bog'i Fanlar akademiyasiga tegishli, uning qaramog'ida, unga tegishli" kabi ma'nolar ifodalanadi va shunday axborot anglashiladi. Ikkinchi misolda ham adib tun cho'kishini "borliqni qora tunning ixtiyorida qoldirish" ifodasi bilan tasvirlaydi va bunda ohorli poetik tasvir yaratadi. Yoki *Shirin shahridagi chempionlar maskani yana sportchilar ixtiyorida*. Ushbu gapdan "*Shirin shahridagi chempionlar maskani yana sportchilarga tegishli*" axboroti anglashiladi.

Xulosa

O'zbek tilida *ixtiyorida, tasarrufida, qaramog'ida, izmida* so'zlariga *bo'lmoq, qo'lmoq* fe'llarining birikib kelishidan hosil bo'lgan *ixtiyorida bo'lmoq, tasarrufida bo'lmoq, qaramog'ida bo'lmoq, izmida qolmoq; ixtiyorida qolmoq, tasarrufida qolmoq, qaramog'ida qolmoq, izmida qolmoq* yasama fe'llari ham mavjud. Shunisi xarakterliki, fe'l yasalishida mazkur so'zlarning semantikasi butkul o'chib ketmaydi. Shu sababli ushbu fe'llar orqali ham ularning semantikasi ta'sirida gapda qarashlilik-tegishlilik ma'nosi ifodalanadi.

Nutqda *ixtiyorida* so'zi ba'zan *izmida* so'zi bilan; *ixtiyorida bo'lmoq, ixtiyorida qolmoq* so'zlari *izmida bo'lmoq, izmida qolmoq* yasalmalari bilan almashinib qo'llana oladi. Bunday vaqtda *izmida, izmida bo'lmoq, izmida qolmoq* birliklari "tasarruf, tasarruf qilish, egalik qilish" ma'nosini anglatib, qarashlilik-tegishlilik ma'nosini yashirin ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, "*Iztopar itlar iste'dodli izquvarlar izmida*" gapida qo'llangan *izmida* so'zi

“tasarrufida” ma’nosini bildiradi. *Tasarrufida bo’lmoqlik* esa predmetga egalikni anglatadi. Shu jihatdan ushbu gapdan *izmida* so’zi semantikasi ta’sirida yashirin tarzda “Iztopar itlar iste’dodli izquvarlarga tegishli” axboroti anglashiladi.

O’zbek tilida *qaramog’ida* hamda bu so’z ishtirokida yasalgan *qaramog’ida bo’lmoq*, *qaramog’ida qolmoq* fe’l leksemalari orqali ham gapda yashirin qarashlilik-tegishlilik ifodalanadi.

Ma’lumki, *qaramog’ida* so’zi *qaramog’* so’zi asosida hosil qilingan bo’lsa-da, bugungi kunda yaxlit birlik sanaladi. Ammo bu so’z *qaramog’ida* shaklida “O’zbek tilining izohli lug’ati”da uchramaydi. *Qaramog’* so’ziga lug’atda quyidagicha izoh berilgan: “QARAMOG” Tarbiya, boqish, tasarruf va sh.k. jihatdan mansublik, ixtiyorida bo’lish, qaramlik. *O’n yoshimgacha onamning qaramog’ida tarbiyalandim. – Azizbek Turkiston xonligining eng zolim... beklaridan va uning o’z qaramog’ida bo’lgan Toshkent aholisiga qilgan zulmlari Farg’onaga doston. Eshmat aka... qaramog’idagi bolalari to’g’risida spravka kelsa, uyga qaytarishlari lozimligini yozard* (G’ulomov, 1941: 61).

Nutqda *qaramog’ida* so’zi, *qaramog’ida qolmoq*, *qaramog’ida bo’lmoq* fe’l leksemalarining “tasarrufida, ixtiyorida bo’lmoqlik” semasi yuzaga chiqqanda “tegishlilik, qarashlilik” ifodalanadi. Biroq bu ma’no yashirin xarakterga ega bo’ladi.

Bu birliklar nafaqat kishilarga, balki xo’jalik, davlat, yurt kabilarga nisbatan ham ishlatiladi. Bunday vaqtda ushbu birliklarning “ta’minotida bo’lmoq,” “tasarrufida bo’lmoq” ma’nolari voqelanadi. Masalan:1. “Ta’minotida” ma’nosi ifodalanadi: *OTMlarda tahsil olayotgan yetim bolalar davlat qaramog’ida bo’ladi*. 2. “Tasarrufida bo’lmoq” ma’nosi ifodalanadi: *O’zbekistonda bank aktivlarining 80 foizdan ortig’i davlat qaramog’ida*. Gapda qo’llangan *qaramog’ida* so’zi, *qaramog’ida qolmoq*, *qaramog’ida bo’lmoq* fe’l leksemalarining aynan “tasarrufida bo’lmoq” ma’nosi reallashganda esa sintaktik konstruksiyada “xo’jalikka tegishli”, “davlatga tegishli”, “hokimlikka tegishli” kabi turli axborotlar ifodalanadi. Masalan:Ko’rinadiki, o’zbek tilida gapda qo’llangan *qaramog’ida* so’zi, *qaramog’ida qolmoq*, *qaramog’ida bo’lmoq* fe’l leksemalari orqali ularning semantikasi ta’sirida yashirin axborot ifodalanadi (Ismoilova, 2024:130).

O’zbek tilida iboralar, maqollar, o’xshatishli qurilmalarda qaratqich kelishigi qo’llanilishining individual xususiyatlari bor. Bunday birliklarda mazkur kelishik ko’proq belgili keladi. Masalan, *kalning temirdan tarog’i bor, ammamning buzog’i, bo’zchining mokisiday, anqoning urug’i, og’zining tanobi qochdi, otning qashqasi, suhbatning guli, gapning po’stkallasi*.

O’zbek tilida vositasiz qaratqich kelishigi vositasida bog’langan frazema va idiomalarda qaratqich kelishigining o’rni faqatgina subyektga ko’ra belgilanadi. Vositali qaratqich kelishigida tayanch komponentning o’rni substantiv hisoblanadi.

Xullas, o’zbek tilida ayrim so’zlarning lug’aviy ma’nosi ta’sirida ham qarashlilik-tegishlilik ma’nosi ifodalanadi. Ammo bu so’zlar ifodalagan qarashlilik-tegishlilik ma’nosi yashirin xarakterga ega bo’ladi.

ADABIYOTLAR

- Bastrakova, E.A. (2019), “Nekotorie osobennosti kategorii posessivnosti v russkom yazıke v sravnenii s drugimi yazıkami”, kirish: 10.04.2025, <https://scipress.ru/philology/articles/nekotorye-osobennosti-kategorii-posessivnosti-v-russkom-yazyke-v-sravnenii-s-drugimi-yazykami.html>
- G’adzhiev, N. (1975), *Kategoriya prinadlezhnosti v sovremennom azerbaydzhanskom yazyke*, Avtoreferat. dis. kand. filol. nauk, Baku.
- G’aynullina, R.G. (2002), *Semantiko-sintaksicheskaya struktura possessivnykh predlozheniy*, Avtoreferat. diss. kand. filol. nauk, Tver’.

- G'ulomov, A. (1941), "O'zbek tilida kelishiklar", *Trudy Uzbekskogo filiala AN SSR. Ser.*, 2. Kn.2. T.
- G'ulomov, A. (2008), *Ayub G'ulomovning ilmiy merosi (4-kitob). O'zbek tilida aniqlovchilar. O'zbek tilida kelishiklar*, Toshkent.
- Guzev, V.G. (1987), *Ocherki po teorii tyurkskogo slovoizmeneniya: Ima (na materiale staroanatolijsko-tyurkskogo yazyka)*, Leningrad: Izd-vo LGU.
- Ismoilova, Muattar Ilyosovna (2024), *O'zbek tilida qarashlilik-tegishlilik ma'nosini ifodalovchi birliklarning semantik xususiyatlari*, dissertatsiya, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.
- Mahmudov, N. va boshqalar (2004), *O'zbek tilining izohli lugati*, 2-jild (5 jildi), Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
- Mahmudov, N. va boshqalar (2006), *O'zbek tilining izohli lugati*, 3-jild (5 jildi), Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
- Mahmudov, N. va boshqalar (2008), *O'zbek tilining izohli lugati*, 5-jild (5 jildi), Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.
- Plungyan, V.A. (2011), *Vvedenie v grammaticheskuyu semantiku: grammaticheskie znacheniya i grammaticheskie sistemi yazikov mira*, Moskva: Rossiyskiy gosudarstvenniy gumanitarniy universitet.
- Qodiriy, A. (2014), *O'tkan kunlar* (roman), Toshkent: Sharq.

